



UO'T: 631.52:635.26

SARIMSOQ NAV NAMUNALAR TO'PLAMINI O'RGANISH NATIJALARI

Salomov Boxodir Salomovich 

Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti
Surxondaryo ilmiy tajriba stansiyasi katta ilmiy xodimi, DSc

Annotatsiya. Mazkur maqolada sarimsoqning muhim xo'jalik belilarini o'zida mujassamlashtirgan, hosildor, uzoq muddatga saqlashga yaroqli, transportbop bo'lgan navlari seleksiyasi uchun boshlang'ich manba yaratish bo'yicha tadqiqotlar natijalari bayon qilingan. Tadqiqotlar natijasida K-16, K-20, K-22, K-81 kabi istiqbolli nav namunalari ajratilgan.

Аннотация. В статье приведены результаты исследований по созданию исходного материала для селекции высокопродуктивных и пригодных для длительного хранения сортов чеснока с комплексом положительных признаков. В результате исследований выделены перспективные сорта образцы чеснока К-16, К-20, К-22, К-81.

Abstract. The article presents the results of research on the creation of source material for the selection of highly productive, transportable and suitable for long-term storage varieties of garlic with a complex of positive traits. As a result of the research, promising varieties of garlic K-16, K-20, K-22, K-81 were identified.

KIRISH.

Bugungi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlarida sarimsoqning yuqori hosilli, sifatli, kasallik va zararkunandalar chidamli yangi navlarini yaratishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. FAO ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yilda butun dunyo bo'yicha 29,1 mln tonna sarimsoq yetishtirilgan. Jumladan dunyo bo'yicha eng ko'p sarimsoq yetishtiruvchi mamlakatlar: Xitoy Xalq Respublikasi (21,3 mln t.), Hindiston (3,2 mln t.), Bangladesh (526,8 ming t.), Argentina (396,5 ming t.), Ispaniya (281,9 ming t.), Janubiy Koreya (272,8 ming t.), Efiopiya (218,8 ming t.), O'zbekiston (210,3 ming t.), Amerika Qo'shma Shtatlari (204,8 ming t.), hamda Myanma (203,3 ming t.), hisoblanib 26,8 mln tonna sarimsoq yetishtirgan bo'lib umumiy hosilning 92,1% ni tashkil qilgan. "Birgina Xitoy Xalq Respublikasining o'zi jahon ishlab chiqarishining 73,2 foiz mahsulotini yetishtirgan". Bu esa dunyo aholisining sarimsoq iste'moliga bo'lgan talabi ortayotganligi, natijada uning urug'



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

chiligiga, nav va duragaylarini yaratishga bo'lgan talabning ham shunga bog'liq tarzda ortib borayotganligi bilan izohlanib sarimsoq seleksiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Keyingi yillarda (2015-2024 yy) SPE va KITI Surxondaryo ilmiy tajriba stansiyasida sarimsoq nav namunalari o'rganish, yangi navlarini yaratish borasida tadqiqotlar olib borildi va ushbu ekinning yangi "Chidamli", "Surxon voxasi", "Janub", "Baraka" va "Termiz 2020" navlari yaratilib Davlat reyestriga kiritildi hamda Intellectual agentligi tomonidan patentlashtirildi (Davlat reyestri 2021., № NAP 00403, № NAP 00404, № NAP 00406 va № NAP 534).

Keyingi tadqiqotlarimiz sarimsoqning muhim xo'jalik belgilarini o'zida mujassamlashtirgan, hosildor, uzoq muddatga saqlashga yaroqli, transportbop bo'lgan navlarini yaratishga qaratilgan.

MATERIALLAR VA USLUBLAR.

Tadqiqotlar materiali bo'lib Chidamli va maxalliy sharoitda yetishtirilayotgan 21 ta sarimsoq nav namunalari xizmat qildi. Qiyosiy nav Yujno-fioletoviy xar 10 ta nav namunasidan keyin joylashtirildi. Piyozechalar 10-20 sentyabrda ekildi. Tadqiqotlar OST-4671-78, Методические указания по экологическому испытанию овощных культур в открытом грунте, Методика Государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур asosida olib borildi.

Amal davrida fenologik kuzatuvlar olib borildi (piyozechalarning unib chiqishi (10%; 75%), yoppasiga gul novda chiqarishi, poyalarning sarg'ayishi, piyozboshlarning yoppasiga texnik pishishi). Hosil yig'ib olingandan 3-kun o'tgach o'lchandi. Sifatli va sifatsiz hosil aloxida o'lchandi. Sifatsiz hosilga diametri 2,5 sm dan kam bo'lgan, kasallangan va zararkunandalar bilan zararlangan, titilib ketgan piyozboshlar kiritildi.

Natijalar va ularning taxlili. 2015-2023 - yillar davomida sarimsoqning 21 ta nav namunalari o'rganildi. Piyozechalarning yoppasiga unib chiqishigacha qiyosiy Yujno-fioletoviy va maxalliy navlar uchun 16 kunni tashkil etdi.

Unib chiqishdan gul novda chiqarishigacha bo'lgan davr tajribadagi qiyosiy nav, Chidamli va maxalliy nav namunalari 188 kunni, K-81 klonida 200 kunni tashkil etdi.

Unib chiqishidan yoppasiga texnik pishib yetilishigacha bo'lgan davr tajribadagi nav namunalari 223 kunni, faqatgina K-81 kloni 240 kunni tashkil etdi.

O'simlik bo'yi (gul novda uzunligi bilan birga) K-5, K-7, K-8, K-9, K-10, K-11, K-12, K-13, K-14, K-15, K-16, K-17, K-19, K-20, K-21, K-22 navlarida 45-55 sm, qiyosiy nav, Chidamli, K-3, K-4, K-6, K-18 navlarida 56-60 sm ni, faqatgina K-81 kloni 83 sm ni tashkil etib, maxalliy va qiyosiy navlarga nisbatan 23-38 sm ga baland bo'ldi. Ushbu o'zgaruvchanlik gul novda hisobiga to'g'ri keladi.

Eng muhim ko'rsatkichlardan biri bu sarimsoq piyozboshining vazni hisoblanadi.

AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

Tadqiqotlarimizda piyozbosh vazni bo'yicha yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan K-16 (72g), K-20 (69g), K-22 (69g), K-81 (69g) kabi nav namunalari ajratildi.

Qiyosiy nav, K-3, K-4, K-5, K-6, K-7, K-8, K-9, K-10, K-11, K-12, K-13, K-15, K-17, K-18, K-19, K-21 nav namunalarida piyozbosh vazni 24-66 g tashkil etib, boshqa navlarga nisbatan 6-43 g ga kam bo'lgani kuzatildi.

Piyozboshdagi piyozchalar soni muhim xo'jalik belgilaridan biri bo'lib, tadqiqotlardan maqsad piyozchalar soni nisbatan kam, lekin vazni yuqori, piyozchalari katta, uzoq muddat saqlashga yaroqli bo'lgan navlar yaratishdir.

Tajribadagi navlarda piyozboshdagi piyozchalar soni 13,0-14,0 donani tashkil etdi. Ayrim K-14, K-17, K-18, K-19 namunalarida piyozchalar soni 10-11 donani tashkil etib, bitta piyozchaning o'rtacha vazni 2,1-3,2 g ni tashkil etdi. Ushbu navlarning piyozchalar vazni qiyosiy navga nisbatan 1,1-2,2 g ga kam bo'lganligi kuzatildi. Bitta piyozchaning o'rtacha vazni K-16, K-20, K-22, K-81 nav namunalarida 5,0-5,4 g ni tashkil etdi. Chidamli, K-5, K-8, K-12, K-13, K-15, K-21 namunalarida esa 4,4-4,9 g ni, qiyosiy nav va qolgan namunalarda piyozchalar vazni 2,1-4,3 g ni tashkil etdi.

Tadqiqotlar piyozbosh vazni uning balandligi va diametri bilan sezilarli darajada bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Eng katta piyozboshli K-20 (69g) namunasi piyozboshlari balandligi 3,8-4,0 sm ni, diametri 6,0-6,4 sm atrofida bo'ldi. Qiyosiy Yujno-fioletovyy navida esa piyozbosh vazni 61,0 g ni, piyozbosh balandligi 3,6 sm ni, diametri esa 5,5 sm ni tashkil etdi. Xuddi shu holat K-14, K-17, K-18, K-19 namunalarida ham kuzatildi.

O'rganilgan nav namunalari hosildorligi va hosil sifati jixatidan turli-tuman ekanligi ma'lum bo'ldi.

Masalan, qiyosiy navda hosildorlik 19,5 t/ga ni tashkil etgan bo'lsa, K-22 namunasida ushbu ko'rsatkich 23,8 t/ga yetdi (1-jadval).

Sarimsoq nav namunalari hosildorligi va hosil sifati jihatidan bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Eng yuqori umumiy hosildorlik K-16, K-20, K-22, K-81 namunalarida kuzatildi va 23,2-24,7 t/ga ni tashkil etdi.

Eng yuqori tovarbop hosildorlik ham K-16, K-20, K-22, K-81 namunalarida kuzatildi va 23,2-24,7 t/ga ni tashkil etdi. Ushbu nav namunalarida umumiy hosilning 98,3-99,1% i tovarbop hisoblandi.

K-81 nisbatan kechpishar nav bo'lib, o'suv davri 240 kun piyozbosh vazni 67 g, piyozchalar soni 13 dona, piyozchalar vazni esa 4,9 g ni tashkil etdi. Hosildorligi 23,2 t/ga ni tashkil qildi.

Piyozboshlari uy haroratida saqlanishi o'rganilganda, ular kelgusi yilning fevral-mart oylarigacha tabiiy yaxshi saqlanishi kuzatildi. Amalda yetishtirilayotgan maxalliy sarimsoq piyozboshlari sentyabr-oktyabr oylaridayoq to'liq unib chiqadi va notovar holga keladi.

AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

2018-2023-yillardagi tadqiqot natijalariga asoslanib piyozboshning vazni, hamda umumiy va tovarbop hosildorligi jihatidan K-16, K-20, K-22, K-81 nav namunalari istiqbolli deb topildi.

Ushbu navlarning umumiy hosildorligi 23,2-24,7 t/ga ni tashkil etib, bu qiyosiy navga nisbatan 19,0-26,7% ga yuqori demakdir. Eng yuqori tovarbop hosil aynan shu nav namunalarida kuzatildi.

1-jadval

Sarimsoq nav namunalar hosildorligi va uning sifati (2018-2023 yy).

Nav namunalar	Hosildorlik, t/ga			
	Umumiy	Qiyosiy navga nisbatan, %	Tovarbop	Umumiy hosilga nisbatan, %
Yujno-fioletoviy, q.n	19,5	100,0	18,5	94,8
Chidamli, nazorat	21,4	109,7	21,0	98,1
K-3	18,5	94,8	17,6	95,1
K-4	19,0	97,4	18,0	94,7
K-5	21,0	107,6	20,4	97,1
K-6	18,0	92,3	17,1	95,0
K-7	20,0	102,5	19,5	97,5
K-8	22,8	117,0	22,2	97,3
K-9	21,9	112,3	21,0	95,8
K-10	19,5	100,0	19,0	97,4
K-11	21,4	109,7	20,4	95,3
K-12	21,9	112,3	21,0	95,8
K-13	22,7	116,4	22,4	98,6
K-14	10,9	55,8	10,4	95,4
K-15	22,8	117,4	22,3	97,8
K-16	24,7	126,7	24,3	98,3
K-17	10,5	53,8	9,0	85,7
K-18	12,8	65,6	11,9	92,9
K-19	13,8	70,7	12,8	92,7
K-20	23,3	119,5	22,8	97,8
K-21	19,5	100,0	18,6	95,3
K-22	23,8	122,0	23,3	97,8
K-81	23,2	119,0	23,0	99,1

XULOSA.

Tadqiqotlar natijasida K-16 (72), K-20 (69g), K-22 (69g), K-81 kabi nav namunalar ajratildi va istiqbolli deb topildi. Ushbu klonlarda piyozbosh va piyozchalar vazni ham yuqori bo'ldi.



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

Ushbu navlar klonli tanlash asosida ko'paytirilib, maxalliy sharoitga mos, piyozboshning va piyozchalarning o'rtacha vazni yuqori, piyozchalar soni kam, yuqori va sifatli hosilli, uzoq muddat saqlashga yaroqli bo'lgan navlarni yaratish maqsadida boshlang'ich manba sifatida foydalaniladi.

ADABIYOTLAR

1. Делянки и схемы посева в селекции, сортоиспытании и первичном семеноводстве овощных культур. Параметры. ОСТ 4671-78. // В сб.: Сборник нормативных документов на семена и посадочный материал овощных культур. Москва., 1997. -С. 97-111.
2. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта, М.1985. -351 с.
3. Методика Государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур. Москва., 1975. Вып. 4. -С. 49-50.
4. Пивоваров В.Ф. Овоши России. М.,1994-С.116-117